
TOSHLOQLIK ZIYORATCHILAR HURMAT-EHTIROM BILAN KUTIB OLINDI.

Vatandoshlarimizning Haj ibodatlarini mukammal ado qilishlari uchun imkoniyat eshiklarining ochilgani, jonajon yurtimizda diniy sohada amalga oshirilayotgan ishlarning bir namunasidir.

Bugun, Toshloq tumani ziyoratchilari Muborak safardan qaytib kelishdi. Tumanimiz hokimligi, tuman faollari va boshqa bir qancha kutib oluvchilar ishtirokida jami 58 nafar ziyoratchilarimiz tuman markazida kutib olindi.

Hojilarning ko'zlaridagi quvonch yoshlari muqaddas makonlarda jonajon yurtimizdan borgan ziyoratchilarga nechog'lik ulug' sharoitlar yaratilganini ko'rsatib turibdi. Ziyoratchilarimiz mamlakatimiz rahbariyatiga o'z minnatdorchiliklarini bildirib, ularning haqlariga muqaddas ziyoratgohda ko'plab duolar qilganlarini mamnuniyat bilan izhor etishdi.

Toshloq tumani hokimligi axborot xizmati.

2022-07-23 15:20:34